Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy rivojlanish sohasining dunyodagi eng yirik nazariyotchilaridan biri J. Midgli o'zining "*Social investment: concepts, uses and theoretical perspectives*" (Ijtimoiy investitsiya: konsepsiyalar, qo'llanilishi va nazariy istiqbollari) maqolasida va boshqa ishlarida ijtimoiy investitsiya konsepsiyasini "Ijtimoiy rivojlanish paradigmasi" ning ajralmas qismi sifatida yoritib bergan (Midgley, 2017). Uning asosiy tezisi shundan iboratki, ijtimoiy farovonlik va iqtisodiy rivojlanish bir-biriga zid emas, balki bir-birini to'ldirishi kerak. Tadqiqotchi tomonidan ijtimoiy investitsiya "iqtisodiy rivojlanishga ijobiy hissa qo'shadigan ijtimoiy loyihalarga mablag' yo'naltirish" deya ta'riflanadi. Midgli ijtimoiy investitsiyani an'anaviy ijtimoiy yordamdan farqlagan holda an'anaviy xayriya bu shunchaki muhtojlarga pul berish (iste'mol uchun) bo'lsa, ijtimoiy investitsiya odamlarni iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etishga tayyorlash jarayoni sifatida ko'rsatadi. Midgli bo'yicha ijtimoiy investitsiyaning asosiy yo'nalishlari sifatida odamlarni nafaqaga bog'lab qo'ymasdan, ularni ishga joylashtirishga ko'maklashuvchi dasturlar (masalan, ijtimoiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash) ni amalga oshirish hamda kambag'al aholiga nafaqa berish o'rniga, ularga o'z biznesini boshlash uchun mikrokreditlar berish yoki jamg'armalar yaratishga ko'maklashishni tavsiya qiladi.

J. Midglining qarashlari O'zbekistondagi hozirgi "kambag'allikdan farovonlikka" va "tadbirkorlikka yo'naltirilgan ijtimoiy himoya" g'oyalari juda yaqin. Uning nazariyasiga ko'ra, ijtimoiy tadbirkorlik – bu ijtimoiy investitsiyaning klassik namunasi.

Ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy tamoyillaridan hisoblangan barqarorlikka esa aynan ijtimoiy ta'sir investitsiyalari vositasida erishilishi haqida "Ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy tamoyillari" maqolasida ko'rib chiqilgan (Mamatkhanov, 2024a).

2000-yillardan keyin ijtimoiy sohaga sarflanadigan davlat mablag'larini qisqartirishga urinish sifatida yangi bir innovatsion yondashuv – ijtimoiy ta'sir obligatsiyalari – ITO (social impact bonds) Buyuk Britaniyada kashf etilgan. ITO ijtimoiy investitsiyalarning eng murakkab, tarkibiy va natijaga yo'naltirilgan eng samarali ko'rinishi sifatida ta'riflanadi. Agar ijtimoiy investitsiyani umumiy tushuncha deb qaralsa, ITO uning tarkibidagi maxsus moliyaviy vosita hisoblanadi. Bu shunchaki foyda olish uchun pul tikish emas, balki aniq ijtimoiy natijaga, ya'ni ijtimoiy qiymatga yo'naltirilgan investitsiyadir. An'anaviy investitsiyada foyda aktivning o'sishidan olinsa, ITO investitsiyaning qaytishi va foydasi muayyan ijtimoiy muammoning ijobiy hal etilishiga bog'liq bo'ladi. ITOning amalga oshirilishida uch tomon, ya'ni ijtimoiy missiyaga mablag' yo'naltiruvchi investor (xususiy sektor), investitsiya hisobiga xizmat ko'rsatuvchi (bizning holatimizda-ijtimoiy tadbirkor) va ijtimoiy ta'sir natijasini sotib oluvchi, ya'ni investitsiyani qoplab beruvchi davlat ishtirok etadi.

Ilmiy adabiyotlarda ITO ijtimoiy investitsiyaning shunday ko'rinishi deb ta'riflanadiki, unda moliyaviy maqsad (pulni qaytarish) va ijtimoiy maqsad (muammoni yechish) bir-biriga to'liq bog'langan bo'ladi.

Agar boshqa ijtimoiy investitsiyalarda (masalan, imtiyozli kreditda) loyiha ishlasa-ishlamasa pul qaytarilishi kerak bo'lsa, ITODA ijtimoiy ta'sir (social impact) bo'lmasa, moliyaviy qaytim ham bo'lmaydi. Shu sababli ITO ijtimoiy investitsiyaning eng shaffof va natijador shakli hisoblanadi.

F. Nazari Chamaki, G. Jenkins va M. Hashemilar o'zlarining "*Social Impact Bonds: Implementation, evaluation and monitoring*" (Ijtimoiy ta'sir obligatsiyalari: amalga oshirish, baholash va monitoring) nomli tadqiqotlarida ITOni an'anaviy obligatsiya emas, balki natijaga asoslangan shartnoma (performance-based contract) sifatida ta'riflaydilar (Nazari Chamaki et al., 2019). Ularning fikricha, ITO – bu davlat, xususiy investorlar va ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasidagi sheriklik bo'lib, unda

xususiy sektor ijtimoiy dasturni oldindan moliyalashtiradi. Davlat esa faqatgina loyiha muvaffaqiyatli yakunlanib, aniq o'lchanadigan ijtimoiy natijaga erishilgandan keyingina investorga mablag'ni (va ma'lum foizni) qaytaradi. Bu konsepsiyani maqola mualliflari "muvaffaqiyat uchun to'lov" (Pay-for-Success) modeli deb ataydilar.

Maqolada shuningdek, ITOning paydo bo'lishi nisbatan yangi hodisa ekanligi va uning ilk namunasi 2010-yilda Buyuk Britaniyaning Piterboro (Peterborough) shahridagi qamoqxona tizimida qo'llanilgani ko'rsatib o'tilgan. Mualliflarning ta'kidlashicha, 2010-yildan keyin bu mexanizm tez fursatda AQSH, Avstraliya va Kanada kabi davlatlarda ommalashib ketgan.

Ushbu tadqiqotchilar ITOning muvaffaqiyati uchun uchta muhim bosqichni yoritib berishgan:

– amalga oshirish (implementation): shartnomaning aniq tuzilishi, investorlar va ijrochilarning majburiyatlarini yuridik mustahkamlash;

– baholash (evaluation): bu eng muhim bosqichdir. Mualliflar natijani baholash uchun mustaqil uchinchi tomon (verifikator) zarurligini ta'kidlaydilar. Agar baholash xolis bo'lmasa, butun tizim ishdan chiqishi mumkin;

– monitoring: loyiha davomida ijtimoiy xizmatlar sifatini doimiy nazorat qilish. Bu investorning o'z pulini qaytarib olishi va davlatning byudjet mablag'larini tejashi uchun kafolatdir.

F. Nazari Chamaki (2019) va hammualliflarning fikricha, ITOning asosiy natijasi – bu davlat mablag'larining samaradorligini oshirishdir. Agar ijtimoiy dastur ishlasa, davlat tejalgan mablag' (masalan, qamoqxona xarajatlari kamayishi) hisobidan investorga haq to'laydi. Agar dastur ishlamas, davlat hech narsa to'lamaydi. Shu tariqa, ITO ijtimoiy sohaga biznes intizomi va natijadorlik madaniyatini olib kiradi.

J. Malgan, N. Rider, M. Eylott va L. Boshlerlar tomonidan yozilgan *"Social Impact Investment: the challenge and opportunity of Social Impact Bonds"* maqolada ITOni an'anaviy moliyaviy vosita emas, balki "ijtimoiy innovatsiyalar uchun yangi moliyaviy arxitektura" sifatida ta'riflangan (Mulgan et al., 2011). Mualliflarning fikricha, ITO – bu davlat xarajatlarini "kelajakdagi tejamkorlikni kapitalga aylantirish" (capturing future savings) usulidir.

J. Malgan va hammualliflar yuqoridagi maqolada ITOning huquqiy tuzilishini "uchinchi tomon sherikligi" (tripartite partnership) asosida quyidagicha tasvirlaydilar:

birinchidan, ITO natijaga asoslangan shartnoma (the performance contract) sifatida ko'riladi. Chunki unda to'lovlar faqat aniq o'lchanadigan ko'rsatkichlarga erishilganda amalga oshirilishi qat'iy belgilanadi;

ikkinchidan, ITO bo'yicha munosabatlarni amalga oshirishda huquqiy mexanizmning muhim bo'g'ini sifatida maxsus maqsadli tuzilma (special purpose vehicle) alohida yuridik shaxs tuzilishini taklif qilinadi. Bu tuzilma investorlar mablag'ini qabul qiladi va ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchilar bilan shartnomalar imzolaydi;

uchinchidan, jarayonda mustaqil baholash (independent evaluation) amalga oshiriladi. Ijtimoiy natijani baholovchi mustaqil auditor mazkur huquqiy mexanizmning ajralmas qismi sifatida ko'rib, kiritilgan investitsiya faqat ushbu mustaqil uchinchi tomonning xulosasiga asosan qoplab beriladi;

to'rtinchidan, xavf boshqarilganligi (risk management), ya'ni huquqiy jihatdan barcha moliyaviy xavf-xatarlar investor zimmasida bo'ladi. Agar loyiha natija bermasa, davlat tomonidan hech qanday mablag' yo'naltirilmaydi.

D. Edmiston, A. Nikollslar o'zlarining *"Social impact bonds: the role of private capital in outcome-based commissioning"* nomli maqolasida ijtimoiy ta'sir obligatsiyalarini (ITO) shunchaki moliyaviy vosita emas, balki ijtimoiy siyosatni boshqarishning yangi modeli – "natijaga asoslangan buyurtma berish" (outcome-based commissioning) sifatida tahlil qiladi (Edmiston & Nicholls, 2018).

Mualliflar ushbu maqolada ijtimoiy ta'sir obligatsiyalarini natijaga asoslangan boshqaruv mexanizmi sifatida ITOni ijtimoiy tadbirkorlik va ijtimoiy investitsiyalarni bir nuqtada birlashtiruvchi shartnomaviy platforma deb ko'rsatadi. Maqolada ijtimoiy tadbirkorlar (va nodavlat tashkilotlar) ITO zanjiridagi eng muhim ijrochilar sifatida ko'riladi. ITOning ijtimoiy tadbirkorlik uchun eng katta afzalligini "operatsion erkinlik" (operational autonomy) deb ataydilar.

Davlat tadbirkorning harakatlarini chegaralamaydi va aniq natijani talab qiladi. Bu esa ijtimoiy tadbirkorlarga ijtimoiy muammolarni hal qilishda innovatsion va moslashuvchan usullardan foydalanish imkonini beradi.

Mualliflar ta’kidlashicha, ITO – bu ijtimoiy siyosatning “moliyaviylashishi” (financialization) jarayoni bo’lib, bu jarayonda ijtimoiy tadbirkorlar mahsulot (ijtimoiy natija) yaratadi, ijtimoiy investitsiya ushbu mahsulotni yaratish uchun resurs beradi va ITO ushbu mahsulotni davlatga sotish mexanizmi vazifasini o’taydi.

Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, ijtimoiy ta’sir obligatsiyasi – bu davlat, xususiy investorlar va ijtimoiy xizmat ko’rsatuvchi tashkilotlar o’rtasidagi natijaga asoslangan innovatsion moliyaviy-huquqiy mexanizm bo’lib, uning mohiyati muayyan ijtimoiy muammolarni (masalan, ishsizlik, jinoyatchilik yoki kasalliklarning oldini olish) hal qilish uchun xususiy kapitalni jalb etishdan iborat. Uning asosiy belgilari, investitsiyaning ixtiyoriy kiritilishidan tortib, ijtimoiy natijaning mustaqil baholanishi va aniq o’lchanishi, loyiha muvaffaqiyatsizligi bilan bog’liq moliyaviy xavf-xatarning to’liq investor zimmasida bo’lishi hamda davlat tomonidan to’lovlarning faqatgina ko’zlangan ijobiy natijaga erishilganda (ya’ni byudjet mablag’lari tejab qolinganda) amalga oshirilishida namoyon bo’ladi. Bu tizim “natija uchun to’lov” (pay-for-success) tamoyili asosida ishlab, davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va ijtimoiy sohaga innovatsion yechimlarni xavfsiz olib kirishga xizmat qiladi.

*Jadval*

#### ITO va an’anaviy obligatsiyalarning solishtiruvi

Xususiyatlari	An’anaviy obligatsiyalar	Ijtimoiy ta’sir obligatsiyalari
Asosiy maqsad	Moliyaviy kapitalni jalb qilish (masalan: infratuzilma yaratish, biznesni kengaytirish va h.k.)	Muayyan ijtimoiy muammoni hal qilish (masalan: ishsizlikni kamaytirish, ta’lim sifatini oshirish)
To’lov manbai	Emitentning (qarzdorning) umumiy daromadi yoki pul oqimlari	Ijtimoiy loyihaning muvaffaqiyatli natijasi tufayli davlat byudjetida tejab qolingan mablag’lar
Daromadlilik	Oldindan belgilangan qat’iy yoki o’zgaruvchan foiz stavkasi	Ijtimoiy natijaga bog’liq. Natija qanchalik yuqori bo’lsa, investorning foydasi shuncha yuqori bo’ladi
Asosiy xavf (risk)	Emitentning bankrot bo’lishi (defolt)	Ijtimoiy maqsadlarga erishilmasligi. Agar natija bo’lmasa, investor pulini yo’qotishi mumkin
Ishtirokchilar	Emitent (davlat/kompaniya) va investor	Davlat (buyurtmachi), investor, xizmat ko’rsatuvchi tashkilot (ijtimoiy tadbirkor) va mustaqil baholovchi
Muvaffaqiyat mezonlari	Qarzni va foizlarning o’z vaqtida to’lanishi	Oldindan belgilangan ijtimoiy ko’rsatkichlarga erishish (masalan, jinoyatchilikning 10 foizga kamayishi)
Qiyofasi	Sof moliyaviy instrument	Davlat-xususiy sheriklikning innovatsion shakli

ITO sohasidagi xalqaro standartlar. Dunyo miqyosida ijtimoiy muammolar (kambag’allik, ishsizlik, sog’liqni saqlash, ekologiya) ko’payib borishi bilan davlat byudjetlari va an’anaviy xayriya mablag’lari ularni hal qilish uchun yetishmay qolayotganligi fonida bir qator nufuzli xalqaro tashkilotlar, xususan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) va boshqalar tomonidan ijtimoiy sohani moliyalashtirishdagi “bo’shliqni” to’ldirish, byudjet xarajatlari samaradorligini oshirish, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun ijtimoiy ta’sir obligatsiyalari bo’yicha maxsus hujjatlar va

qo'llanmalar qabul qilingan. Xalqaro tashkilotlarning qabul qilingan hujjatlari, qo'llanmalar va tahliliy hisobotlar ITO mexanizmning huquqiy va iqtisodiy standartlarini belgilab beradi.

Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti 2014-yilda ITOlarning dastlabki natijalari va rivojlanish istiqbollari tahlilini o'z ichiga olgan *"Social Impact Bonds: State of Play"* hujjatini e'lon qildi (Ronicle et al., 2014).

Ushbu hujjat ijtimoiy ta'sir obligatsiyalari sohasidagi fundamental tadqiqot natijalariga asoslangan hisobot bo'lib, unda ITO loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha qat'iy "xalqaro texnik standartlar" (ISO kabi) emas, balki ilg'or xalqaro tajribaga asoslangan metodologik standartlar va tavsiyalar ilgari surilgan.

Ushbu hujjatda keltirilgan quyidagi asosiy tavsiyaviy standartlar berilgan:

– ijtimoiy natijani (outcome) miqdor jihatidan o'lchash va pul ko'rinishida baholash imkoni bo'lishligi;

– investitsiya qilingan mablag' aniq bir ijtimoiy natijaga olib kelishini ko'rsatuvchi mantiqiy zanjir bo'lishi shartligi;

– maqsadli guruhlarning (beneficiaries) aniq belgilanishi va bu guruhlarning ehtiyojlari boshqa ijtimoiy dasturlarga aloqador bo'lmasligi.

Bundan tashqari, davlat va investor o'rtasida nizo kelib chiqishining oldini olish maqsadida ijtimoiy natijalarni o'lchash uchun uchinchi, mustaqil tomon (validator)ni jalb qilish, xizmat ko'rsatuvchi tashkilot (ijtimoiy tadbirkor)larga qat'iy ko'rsatmalar emas, balki natijaga erishish uchun faoliyatni vaziyatga qarab o'zgartirish erkinligini ta'minlash, ITO loyihalarini qo'llab-quvvatlovchi alohida tashkilotlar tashkil etish kabi tavsiyalar berilgan.

2016-yilda qabul qilingan *"Understanding Social Impact Bonds"* hujjati ITO bo'yicha eng asosiy uslubiy qo'llanma bo'lib, unda mexanizmning ta'rifi, ishtirokchilarning rollari, risklar va afzalliklar batafsil bayon etilgan (Organisation for Economic Co-operation and Development, 2016).

Ushbu hujjatda loyihani tanlash standartlari va baholash metodologiyalari bilan birga bu sohada davlatning institutsional salohiyatini oshirish uchun ITOlar davlat xaridlari va byudjet tizimiga zid kelmasligini ta'minlovchi huquqiy baza yaratish, shartnomalarni standartlashtirish va tayyor shablonlardan foydalanish orqali huquqiy va konsultativ xarajatlarni tejash, ijtimoiy muammolarni hal etishda davlat idoralarining uzviy hamkorligini yo'lga qo'yish, korrupsiya xavfini kamaytiradi va ijtimoiy ishonchni oshirish uchun natijalar va to'lovlar haqidagi ma'lumotlarni jamoatchilik uchun ochiq e'lon qilish kabi tavsiyalar ilgari surilgan.

2019-yilda global miqyosda ijtimoiy investitsiyalar, jumladan, ITOlarning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi o'rni haqidagi qabul qilingan *"Social Impact Investment: The Impact Imperative for Sustainable Development"* fundamental hisobotida ijtimoiy investitsiyalar ko'lamini kengaytirish bilan birga hukumatlarga ijtimoiy tadbirkorlik va ijtimoiy investitsiyalar uchun maxsus huquqiy maqomlar berish, ijtimoiy ta'sir obligatsiyalarini davlat xizmatlarini ko'rsatishga joriy etish, ijtimoiy loyihalarga investitsiya kiritganlar uchun soliq imtiyozlari yaratish bo'yicha tavsiyalar yoritilgan (Organisation for Economic Co-operation and Development, 2019).

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ijtimoiy ta'sir obligatsiyalarini barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDGs) muvofiqlashtirish, ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha bir nechta muhim qo'llanma va standartlarni ishlab chiqqan.

Misol tariqasida BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP)ning *SDG Impact Standards for Bond Issuers* hujjatini keltirish mumkin. Ushbu hujjatda qayd etilgan standartlarga ko'ra, investor va emitent ijtimoiy ta'sirni faqat o'lchabgina qolmay, uni doimiy boshqarishi va yaxshilab borishi shart (United Nations Development Programme, 2021). Ijtimoiy natijalarning baholanishi, hisoblanishi va buning uchun to'lovlarning amalga oshirilishi ochiq va shaffof bo'lishi kerak. Shuningdek, ijtimoiy loyiha kimga qaratilgan bo'lsa, o'sha aholi qatlamining ehtiyoji va fikri hisobga olinishi shartligi belgilab qo'yilgan.

Ushbu xalqaro metodologik standartlar va tavsiyalarni O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy islohotlari jarayoniga tatbiq etish davlat xarajatlari samaradorligini tubdan oshirish, ijtimoiy sohaga innovatsion

yechimlarni olib kirish va xorijiy kapital oqimini jadallashtirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Xususan, OECD tavsiyalari asosida ITOlarni davlat xaridlari va byudjet tizimiga integratsiya qilish hamda shartnomalarni standartlashtirish tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilsa, BMTning *SDG Impact* standartlariga rioya qilish mamlakatning xalqaro ESG-investorlar oldidagi jozibadorligini oshirib, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni tezlashtiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy natijalarni mustaqil baholash (validator) va ma'lumotlar shaffofligini ta'minlash tizimi korrupsiyaviy xavflarni bartaraf etgan holda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi; ijtimoiy tadbirkorlarga operatsion erkinlik berilishi hamda ijtimoiy investitsiyalar uchun soliq imtiyozlari va maxsus huquqiy maqomlarning joriy etilishi esa "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida aholining eng zaif qatlamlari ehtiyojlarini manzilli va sifatli qondirishga imkon beruvchi, natijaga yo'naltirilgan zamonaviy ijtimoiy himoya modelini yaratishga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

Ijtimoiy investitsiyalar va ijtimoiy obligatsiyalariga oid O'zbekistondagi mavjud huquqiy mexanizmlar. O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy investitsiya tushunchalari nisbatan yangi hisoblanadi. Mamlakat hozirgi kunda ushbu nazariy tushunchalarni milliy qonunchilikka moslashtirish va ijtimoiy tadbirkorlikning huquqiy maqomini belgilash bosqichida turibdi. O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun huquqiy bazani takomillashtirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ta'lim va malaka oshirish, tashkiliy qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik ongini oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi zaruriyati haqida "O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik muammolari va istiqbollari" maqolasida to'xtalib o'tilgan (Mamatxanov, 2024b).

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan (President of the Republic of Uzbekistan, 2026). Shu nuqtayi nazardan O'zbekistonda ijtimoiy investitsiyalar strategiyada belgilangan maqsadlarga erishish uchun muhim vosita sifatida maydonga chiqishi mumkin. Bu bilan ijtimoiy tadbirkorlik orqali chekka hududlarda yangi ish o'rinlari yaratish, kambag'allikni qisqartirish, xususiy sektor investitsiyalarini ijtimoiy xizmatlar, ya'ni ta'lim va tibbiyot sohasiga faol jalb qilish, "yashil" investitsiyalar orqali ekologik muammolarni hal etish bilan birga ijtimoiy farovonlikka erishish imkoniyati mavjud.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan, intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek, reinvestitsiyalar investitsiya deb ta'riflanadi (Republic of Uzbekistan, 2019a).

Iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa foyda olish uchun investitsiyalarni amalga oshirishga yoxud jalb etishga qaratilgan, o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar majmui investitsiya loyihasi hisoblanadi.

Qonunning 5-moddasiga muvofiq, investitsiyalar mo'ljallangan obyektiga ko'ra kapital, moliyaviy va ijtimoiy turlarga bo'linadi.

Inson salohiyatini, ko'nikmalarini va ishlab chiqarish tajribasini rivojlantirishga, shuningdek, nomoddiy boyliklarning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar ijtimoiy investitsiyalar jumlasiga kiradi.

8-moddaga ko'ra, ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlarining obyektlari investitsiya faoliyati obyektlaridir.

Qonunda "ijtimoiy investitsiya" ta'rifi bor, lekin uni amalga oshirishning protsessual tartibi (masalan, loyihani qanday ro'yxatdan o'tkazish, ijtimoiy natijani kim va qanday baholashi) alohida tartiblar va mexanizmlar qonunchilikda to'liq mustahkamlanmagan.

Ayni vaqtda O'zbekistonda ijtimoiy ta'sir obligatsiyasi modeliga eng yaqin bo'lgan huquqiy mexanizm sifatida davlat-xususiy sheriklik institutini misol tariqasida ko'rsatsa bo'ladi. Bunga O'zbekiston Respublikasining "Davlat xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni huquqiy asosida sifatida xizmat qiladi (Republic of Uzbekistan, 2019b).

Qonunga ko'ra, davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini

birlashtirishiga asoslangan hamkorligi davlat-xususiy sheriklik deya ta'riflanadi. Iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy vazifalarni hal etishga qaratilgan, xususiy investitsiyalarni jalb etish va (yoki) ilg'or boshqaruv tajribasini joriy etish asosida amalga oshiriladigan tadbirlar majmui davlat-xususiy sheriklik loyihasi sifatida ko'riladi.

O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) sohasi so'nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy sohalar – ta'lim, sog'liqni saqlash kabi yo'nalishlar bunda muhim o'rin tutadi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi PQ-3651-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, davlat xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalariga binolar qurish uchun yer uchastkalari bepul asosda ijaraga berish, bo'sh yotgan davlat mulki obyektlarini "nol" xarid qiymatida sotish, to'liq butlanmay qolgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining foydalanilmayotgan joylarini uzoq muddatli bepul maqsadli foydalanishga topshirish, xususiy sherikning mol-mulki negizida tashkil qilingan va oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlash kabi imkoniyatlar taqdim etilgan (President of Uzbekistan, 2018). O'z navbatida xususiy sherik zimmasiga ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalar va maxsus kontingentdan muayyan miqdordagi tarbiyalanuvchilarni o'qitish, ular uchun ota-onalar to'lovining imtiyozli miqdorlarini belgilab qo'yish majburiyati yuklanadi. Bundan tashqari bir qator boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan mazkur sohada davlat xususiy sheriklikni rivojlantirish maqsadida nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalariga imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va boshqa imtiyoz va preferensiyalar taqdim etilgan. Natijada O'zbekistonda maktabgacha ta'lim qamrovi 2025-yil yakunida 78 foizga yetgan (Daryo.uz, 2025).

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 12-iyundagi PF-93-sonli Farmonida ijtimoiy ta'sir obligatsiyalari elementlarini ichiga olgan, ya'ni "natija uchun to'lov" mexanizmi belgilangan (President of the Republic of Uzbekistan, 2023).

Ushbu hujjatga ko'ra, "20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis" maqsadli dasturi asosida tadbirkorlik subyektlari ijtimoiy muammoni hal etgan va ijtimoiy investitsiya kiritgan taqdirda, ya'ni Ijtimoiy himoya yagona reyestriga kiritilgan fuqarolar ishga qabul qilganda soliqlardan imtiyoz taqdim etiladi va ishsiz fuqarolarni kasbga o'rgatish va o'z ishchilarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv markazlarini qurish va jihozlash xarajatlari davlat hisobidan qoplab beriladi.

Ijtimoiy ta'sir obligatsiyasi qimmatli qog'oz shaklida chiqarilishini hisobga olsak, ushbu model O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinishini mumkin (Republic of Uzbekistan, 2015). Biroq aynan "ijtimoiy ta'sir obligatsiyalari" uchun qonunchilikda alohida turdagi qimmatli qog'oz sifatida ta'rif berilmagan. Bunday holatda ularni faqat "korporativ obligatsiyalar" sifatida, ichki shartnomaviy majburiyatlar bilan chiqarish mumkin bo'ladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, ijtimoiy investitsiyalar shunchaki mehribonlik yoki xayriya emas, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi yuqori samarali vositadir. Uning huquqiy ahamiyati shundaki, u ijtimoiy sohadagi munosabatlarni "boqimandalik" modelidan "shariklik" modeliga o'tkazadi.

Ijtimoiy investitsiyalarning ahamiyati shundaki ular ta'lim, sog'liqni saqlash va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar ishchi kuchining mahsuldorligini oshiradi. Bu esa uzoq muddatda Yalpi ichki mahsulotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

Bozor munosabatlari ijtimoiylashtirilishi bilan kambag'allik chegarasidagi aholini iste'molchi va faol mehnat resursi sifatida iqtisodiyotga qaytaradi, bu esa ichki bozorning kengayishiga olib keladi.

Shaffoflik va hisobdorlik ta'minlanishi bilan har bir tikilgan so'mning ijtimoiy ta'siri o'lchanadi, bu esa korrupsiyani kamaytiradi va byudjet mablag'larining samaradorligini oshiradi.

Innovatsion yondashuv tufayli xususiy sektor ijtimoiy muammolarni hal qilishga o'z kapitali va biznes-texnologiyalarini olib kiradi, bu esa davlat organlarining eskirgan usullaridan ko'ra samaraliroq ishlaydi.

## Xulosa

Ushbu maqolada ijtimoiy investitsiya va ijtimoiy ta'sir obligatsiyalarining nazariy asoslari va xalqaro metodologik standartlari tahlil qilinib, O'zbekistonda mavjud ijtimoiy ta'sirga ega bo'lgan instrument sifatida davlat-xususiy sheriklik hamda natijaga yo'naltirilgan ayrim imtiyozli mexanizmlar ko'rib chiqildi. ITOning ijtimoiy muammolarni hal etishdagi ahamiyatidan kelib chiqib, mazkur vositani ehtimol yangi qabul qilinadigan "Ijtimoiy tadbirkorlik to'g'risida"gi qonunda alohida huquqiy institut sifatida mustahkamlash masalasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki bunday instrumentlarning joriy etilishi ijtimoiy sohani an'anaviy "boqimandalik" modelidan faol "shiriklik" modeliga o'tkazishga zamin yaratadi. Bunda ITOning "natija uchun to'lov" (pay-for-success) tamoyilining qonunchilikda aks ettirilishi davlat byudjeti mablag'larining maqsadli va tejamkor sarflanishini kafolatlaydi, ijtimoiy tadbirkorlarga muammolarni hal etishda innovatsion va operatsion erkinlik beradi hamda mamlakatga xalqaro ijtimoiy investitsiyalarni jalb qilish uchun shaffof huquqiy arxitektura yaratadi. Natijada ijtimoiy muammolarni hal etish davlat uchun shunchaki xarajat emas, balki inson kapitaliga yo'naltirilgan yuqori samarali investitsiya loyihasiga aylanib, barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

## REFERENCES

- Daryo.uz. (2025, December 25). *O'zbekistonda maktablar va o'quvchilar soni qanchaga yetgani ochiqlandi* [The number of schools and students in Uzbekistan has been disclosed]. <https://daryo.uz/uz/2025/12/25/ozbekistonda-maktablar-va-oquvchilar-soni-qanchaga-yetgani-ochiqlandi>
- Edmiston, D., & Nicholls, A. (2018). Social impact bonds: The role of private capital in outcome-based commissioning. *Journal of Social Policy*, 47(1), 57–76.
- Hemerijck, A. (2020). *Social investment as a policy paradigm*. In A. Hemerijck (Ed.), *The future of the social investment state* (pp. 10–27). Routledge.
- Mamatxanov, A. (2024a). Ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy tamoyillari [Basic principles of social entrepreneurship]. *Journal of Science, Education, Culture and Innovation*, 3(8). <https://mudarrisziyo.uz/index.php/innovatsiya/article/view/1465>
- Mamatxanov, A. (2024b). O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik muammolari va istiqbollari [Problems and prospects of social entrepreneurship in Uzbekistan]. *Academic Research in Modern Science*, 3(30), 176–182. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13336035>
- Mamatxanov, A. (2024c). *Ijtimoiy tadbirkorlik: Zamon talabi va rivojlanish omillari* [Social entrepreneurship: Modern requirements and development factors]. In *Current Approaches and New Research in Modern Sciences: International Scientific Online Conference*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13340888>
- Mamatkhanov, A. (2025). Ijtimoiy tadbirkorlik va ijtimoiy korxonalarining qiyosiy-huquqiy tahlili [Comparative legal analysis of the concepts of social entrepreneurship and social enterprise]. *Society and Innovation*, 6(1), 14–20.
- Midgley, J. (2017). *Social investment: Concepts, uses and theoretical perspectives*. In J. Midgley, E. Dahl, & A. Conley Wright (Eds.), *Social investment and social welfare* (pp. 13–32). Edward Elgar Publ.
- Mulgan, G., Reeder, N., Aylott, M., & Bo'sher, L. (2011). *Social impact investment: The challenge and opportunity of social impact bonds*. The Young Foundation.
- Nazari Chamaki, F., Jenkins, G. P., & Hashemi, M. (2019). Social impact bonds: Implementation, evaluation, and monitoring. *International Journal of Public Administration*, 42(4), 289–297.
- Organisation for Economic Co-operation and Development. (2016). *Understanding social impact bonds*. OECD Publishing. [https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2016/06/understanding-social-impacts-bonds\\_2b4a9690/7e48050d-en.pdf](https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2016/06/understanding-social-impacts-bonds_2b4a9690/7e48050d-en.pdf)
- Organisation for Economic Co-operation and Development. (2019). *Social impact investment 2019: The impact imperative for sustainable development*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264311299-en>
- President of the Republic of Uzbekistan. (2018). *Resolution "On measures for the further stimulation and development of the preschool education system"* (No. RP-3651). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/3610518>

President of the Republic of Uzbekistan. (2023, June 12). *Decree “On measures aimed at establishing mutually beneficial cooperation with business entities in poverty reduction”* (No. DP-93). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/6493069>

President of the Republic of Uzbekistan. (2026, February 16). *Decree “On additional measures to consistently continue reforms and bring them to a new stage within the framework of priority directions of the country’s development until 2030”* (No. DP-21). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/8050769>

Republic of Uzbekistan. (2015, June 3). *Law “On amendments and additions to the Law of the Republic of Uzbekistan “On the Securities Market”* (No. LRU-387). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/2662539>

Republic of Uzbekistan. (2019a, December 25). *Law “On Investments and Investment Activities”* (No. LRU-598). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/4664142>

Republic of Uzbekistan. (2019b, May 10). *Law “On Public-Private Partnership”* (No. LRU-537). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/4329270>

Ronicle, J., Stanworth, N., Beadle, S., & Jolley, A. (2014). *Social impact bonds: The state of play*. Ecorys. [https://golab.bsg.ox.ac.uk/documents/Social\\_Impact\\_Bonds\\_-\\_the\\_State\\_of\\_Play\\_-\\_Full\\_Report\\_Ronicle\\_et\\_al\\_BLF.pdf](https://golab.bsg.ox.ac.uk/documents/Social_Impact_Bonds_-_the_State_of_Play_-_Full_Report_Ronicle_et_al_BLF.pdf)

United Nations Development Programme. (2021). *SDG impact standards for bond issuers*. <https://sdgimpact.undp.org/practice-standards.html>

**O‘ZBEKISTON  
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL  
2026-YIL 2-SON

**ОБЗОР  
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА  
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
2026 ГОД № 2

**UZBEKISTAN  
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL  
2026 ISSUE 2

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.2.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.